

Ko‘hna Ko‘kaldosh madrasasi haqida

Internet manbalaridan olindi




Sayyohlar Toshkentga nafaqat zamonaviy binolar, maydonlar, bog‘u-rog‘ va xiyobonlarni, balki qadimiy Sharq san‘ati namunalarini ham tomosha qilish uchun kelishadi. Ular ko‘pincha Chorsu maydonida joylashgan katta bozor tomon shoshilishadi. Deyarli har kuni bir necha o‘n minglab shahar aholisi tashrif buyuradigan bu bozor bo‘ylab sayr qilish, bozordan turli mahsulotlar xarid qilish, shuningdek, u yerda saqlanib qolgan o‘rta asr me‘morchilik obidalaridan biri – Ko‘kaldosh madrasasini tomosha qilish ular uchun juda qiziqarli.

Darvoqe, Ko‘kaldosh madrasasi XVI asrda – Toshkentda Derveshxon hukmronlik qilgan davrda qurilgan. Qurilishga “Ko‘kaldosh” laqabli vazir rahbarlik qilgan. Ushbu ko‘hna madrasa bilan bog‘liq ko‘plab afsona va hikoyalar mavjud. Ulardan biri g‘ayrioddiy pista daraxti haqidagi hikoyadir. U madrasaning g‘ishtli gumbazlaridan birining tepasida uch yuz yildan ortiq vaqt davomida o‘tib turgan. Daraxt muqaddas hisoblanib, u haqida ko‘plab afsona va qo‘shiqlar to‘qilgan.

Ko‘p asrlar davomida Ko‘kaldosh madrasasining binosida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Zilzilalar oqibatida unga bir necha bor katta talofot yetgan, shu sababli uch qavatdan faqat ikkitasi saqlanib qolgan.

1977-yilda ushbu me‘moriy obidani har tomonlama qayta ta‘mirlash boshlangan. Mustaqillik yillarida esa barcha ta‘mirlash-tiklash ishlari yakunlangan.





Ko'kaldosh madrasasi – yirik madrasa. IX va X asrlarda aynan shu yerda Toshkentning uchta shahar darvozasidan biri – Kesh darvozasi joylashgan bo'lgan.



1. Matnda qaysi me'moriy obida haqida hikoya qilinmoqda?
2. Ko'kaldosh madrasasi qayerda joylashgan?
3. Ushbu inshoot qaysi asrda qurilgan?
4. Ko'kaldosh madrasasi qurilishiga kim rahbarlik qilgan?
5. Nima uchun Ko'kaldosh madrasasi Toshkentning eng ko'hna obidalaridan biri hisoblanadi?
6. Madrasa gumbazidagi g'ayrioddiy pista daraxtiga qanday munosabatda bo'lingan?
7. Bino o'zining ko'p asrlik tarixi davomida qanday sinovlarni boshidan kechirgan?
8. Nima uchun tarixiy obidalarni asrash kerak?



Hududingizda qanday qadimiy me'morchilik obidalari joylashgani haqida gapirib bering.



Matnni o'qing va mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.

